

**OSMON HAMMA GAPNI ESHITADI**

*Buxarova Nilufar O'ralovna*

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti*

*Teatr san'ati mutaxassisligi magistranti*

*nilufarbuxarova2503@gmail.com*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada dramaturg Qo'chqor Norqobilning o'zbek sahna san'atiga qo'shgan hissasi ko'rib chiqiladi hamda asarlari asosida sahnalashtirilgan spektakllarning g'oyaviy - badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *Teatr, spektakl, rejissyor, dramaturg, aktyor, obraz, drama, janr.*

**Аннотация.** *В данной работе рассматривается вклад драматурга Кучкора Норкобила в узбекское сценическое искусство и анализируются идейно-художественные характеристики спектаклей, поставленных на основе его произведений.*

**Ключевые слова:** *Театр, спектакль, режиссёр, драматург, актёр, образ, драма, жанр.*

**Abstract.** *This paper examines the contribution of playwright Qo'chqor Norqobil to Uzbek stage art and analyzes the ideological and artistic features of performances staged based on his works.*

**Keywords:** *Theater, performance, director, playwright, actor, image, drama, genre.*

Bugungi kunda zamonaviy o'zbek dramaturgiyasi yangi asarlar bilan boyib bormoqda. Ana shunday asarlardan biri Qo'chqor Norqobil qalamiga mansub "Osmon hamma gapni eshitadi" asaridir. Qo'chqor Norqobil zamonaviy o'zbek adabiyotining taniqli vakillaridan biri. Muallif o'z ijodida inson ruhiyati, jamiyatdagi ijtimoiy muammolar va hayotiy voqealarni yoritib berishi bilan ajralib turadi. Yozuvchi hikoya, qissa va dramatik asarlari orqali inson qalbidagi murakkab kechinmalarni tasvirlaydi. Qo'chqor Norqobil asarlarining muhim jihatlaridan biri shundaki, ular hayotiyliigi bilan ajralib turadi. Adib qahramonlarini oddiy odamlar orasidan izlaydi. Shu sababli uning asarlaridagi voqealar tomoshabin va kitobxonga tanishdek tuyiladi. Teatr keng ma'nodagi ijtimoiy va axloqiy mavzularga alohida e'tibor bermoqda. [1, 557-b].

Shu jumladan muallifning asarlarida ham vijdon, halollik, adolat va insoniylik mavzulari muhim o'rin tutadi. "Osmon hamma gapni eshitadi" hikoyasi ham ana shunday mazmunli asar bo'lib, unda vijdon va adolatsizlik masalasi ko'tarilgan. Asar tomoshabinni o'ylashga, mulohaza yuritishga undaydi, chunki unda ko'tarilgan muammolar bugungi jamiyat hayoti bilan chambarchas bog'liq. Qo'chqor Norqobil

o'z ijodida inson qalbidagi murakkab kechinmalar, hayotiy haqiqatlar va jamiyat muammolarini o'ziga xos badiiy uslubda yoritadi. Dramaturgning ko'pgina asarlarida urush mavzusi qalamga olinib, poytaxt teatrlarida sahnalashtirilmoqda. Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali drama teatrida "Osmon hamma gapni eshitadi" asari rejissyor Doston Haqberdiyev tomonidan 2024-yilda sahnalashtirilgan. Ushbu spektaklda afg'on urushi tufayli bir inson taqdiridagi jarohatni ko'rishimiz mumkin. Dramaturgning o'zi afg'on urushida qatnashgani asarning mazmunini to'laqonli ochishida, muhitni jonli va tabiiy tasvirlashida ko'mak bergan. Hikoyada xalqning dardi va alamlari o'z aksini topgan. Rejissyor har bir obrazning o'ziga xos xususiyatlarini, qahramonlar hayotidagi muhim holatlarni yorqin ochishga erishgan. [2, 33-b]

U asarni sahnalashtirish jarayonida uning g'oyasini chuqur ochib bera olgan. Aktyorlar ijrosi, sahna bezagi va musiqa spektaklning badiiy ta'sirini kuchaytirgan. Rejissyor asarni sahnada hayotiy, hissiy va estetik jihatdan chuqur talqin qilgan. Aktyorlar o'z rolini tabiiy, yurakdan his qilib ijro etadilar. Buni aynan ushbu spektaklda ko'rishimiz mumkin. Spektaklni sahnalashtirishda insoniy tuyg'ular, dramatik vaziyatlar va hayotiy haqiqatlarni yoritib, ularni tomoshabinga yetkazishga harakat qilingan. Spektakl tomoshabinlarda chuqur taassurot uyg'otdi. Unda insoniylik, vijdon, haqiqat va adolat kabi muhim tushunchalar badiiy obrazlar orqali yoritiladi. Afg'on urushida jabr ko'rgan yigitning achchiq qismlari tomoshabinga ruhan ta'sir etmay qolmaydi. Shu sababli spektaklda ko'tarilgan masalalar tomoshabinni o'ylashga, chuqur mushohada qilishga undaydi. Rejissyor bosh qahramonlar Mo'min va Olga hayotidagi voqealar orqali inson qalbidagi kechinmalarni yoritib, ularning taqdiri misolida insonlarning o'z maqsadi yo'lida kurashishini sahnada yorqin aks ettiradi.

Spektaklda ko'tarilgan muammolar bugungi jamiyat hayoti bilan bevosita bog'liq. Rejissyor asarni sahnalashtirishda dramatik vaziyatlar va obrazlarning ichki kechinmalariga alohida e'tibor qaratgan. Sahna harakati, mizanssenalar va aktyorlarning o'zaro munosabatlari orqali asarning asosiy g'oyasini tomoshabinga yetkazadi. Mo'min va Olga o'z hayotida yuz bergan voqealar tufayli ko'plab sinovlarni boshdan kechiradilar. Ularning bir-biriga bo'lgan ishonchi bu sinovlarni yengib o'tishlariga yordam beradi. Voqealarning asta-sekin rivojlanib borishi spektaklning dramatik kuchini oshiradi. Tomoshabin voqealarning rivojini kuzatar ekan, qahramonlarning taqdiriga befarq bo'lmaydi. Aktyorlar dialoglar va sahna harakatlari orqali obrazlarning ichki dunyosini ochib berishga harakat qilganlar. Bu esa spektaklning badiiy ta'sirini kuchaytiradi. Urush qahramonimiz Mo'min (Tohir Rahimov) taqdirini ham tubdan o'zgartirib yubordi. U urush ta'sirida asabiy bo'lib qolgan. Qahramonimizning yakka-yu yagona suyangan insoni uning umr yo'ldoshi Olga (I. Umirova). Mo'min doim ayoliga o'z rejalari haqida gapirib berar, ayoli ham

uni qo'llab-quvvatlaydi. Mo'min va Olga farzand ko'rmagan, ammo bir-birlariga suyanib yashaganlar. Ayrim insonlarning qilgan nohaqliklari tufayli ularning orzu-umidlari bir zumda chil-parchin bo'ladi. Mo'min uyi buzilishga tushganini eshitib, jahli chiqadi va hukumat vakillari bilan tortishadi. "Senlar hukumat emassanlar, senlar hukumat qo'ynidagi qora ilonsanlar. Yo'qollaring, hozir senlarni bir narsa qilib qo'ymasimdan", – deydi kuyinib, ularni uyidan haydab yuboradi.

Sodir bo'layotgan voqealar Mo'minni tashvishga soladi. Unga atrofdagi shovqin-suronlar urush asoratlarini eslatib, uni yanada qayg'uga soladi. Mo'minning ko'zlarida ma'yuslik, g'amginlik hamda iztirob bor. Unga salbiy hodisalardan ko'ra tinchlik, osoyishtalik zarur, chunki u afg'on urushidan qattiq ruhiy zarba olib, xasta holda qaytgan edi. Shu sababli urushni unita olmaydi. Tushida ham, hushida ham urush voqealari unga tinchlik bermaydi. Shuncha azoblar yetmaganday, ba'zi "yomon" insonlarning Mo'minga nisbatan qilgan nohaqliklari uni battar qiynaydi. Shu qiyin kunlarini unitishiga unga ayoli Olga yordam beradi. Mo'min qilgan ishlaridan faxrlanadi, lekin ba'zilar uning mehnatlarini qadrlamaganidan achinadi.

Mo'minni atrofdagi bo'layotgan voqealar, insonlarning befarqligini, ba'zi mansabdor shaxslar xalq boshiga tushgan muammolarga ko'z yumib ketayotgani o'ylantiradi. "Butun borliq chang to'zon ichida, suv yetmayapti. O'zi jar yoqasida turib boshqalarga hujum qiladigan chiya bo'rilar. Hamma joyni zahar bosib ketayapti -ku, qayoqqa qarayapsizlar?", – deya faryod qiladi. U o'zining yaratgan archazori bilan tabiatning tozaligiga hissa qo'shayotgan edi. Ba'zi kimsalar shu bog'ni ham buzishga harakat qilmoqda. Buni eshitgan Mo'min chidab turolmay, vatanini tashlab boshqa joyga ko'chmoqchi bo'ladilar.

Dramaturg Mo'min obrazi orqali hayot sinovlariga duch kelgan insonning ichki kurashini ifodalaydi. Aktyor bu obrazni ijro etishda ruhiy iztirob va insoniy kechinmalarni ishonarli tarzda namoyon etadi. Muallif inson har qanday vaziyatda sabr qilib, o'z maqsadi yo'lida kurashishi zarurligini ko'rsatadi. Bu obraz tomoshabinlarda ham chuqur o'y va mulohaza uyg'otadi.

Nihoyat Mo'minning chizgan loyihalari Toshkentga yetib bordi. Shu sababli hukumat qo'ynidagi ayrim mansabdor shaxslar pitirchilab qolishgan. Ular Mo'minga poytaxtdan mehmonlar kelganligini va ularni yaxshi kutib olish kerakligini aytib ogohlantiradilar. Bu kimsalarning maqsadi kelayotgan rahbarlarga yaxshi ko'rinish edi. Ular rahbar oldida hech narsa bo'lmaganday, o'zlarini yaxshi ishlaganday qilib ko'rsatishga urinadilar. Mo'min bilan bo'layotgan suhbatni ora- sira videoga ham olib qo'yadilar.

Aktrisa I. Umirova Olga obrazi orqali ayol qalbidagi nozik tuyg'ular, insoniy munosabatlar va mehr-oqibatning qanchalik muhimligini mahorat bilan ochib bergan. Spektaklda aktrisa mehribon, matonatli va sodda ayol qiyofasini yaratgan. U samimiyligi va sabr bardoshliligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Olga hayot

sinovlariga qaramay, turmush o'rtog'ini qo'llab-quvvatlashga intiladi. U Mo'min bilan o'ttiz besh yil yashab, farzand ko'rmadi. Er-xotin o'zlari yaratgan bog'dagi har bir daraxtga jon berib, ularning unib-o'sishi uchun kechayu -kunduz mehnat qildilar. Shuning uchun bog'dagi daraxtlar ularga farzanddek bo'lib qolgan. Olga oilasini saqlab qolish uchun har qanday qiyinchiliklarni yengishga tayyor jasur ayoldir.

Spektakl voqealarining rivojlanishiga hissa qo'shgan qahramonlardan yana biri Bankir (Bahrom Boltayev) bo'ladi. U ayyor Mo'minning uyiga ha deganda, bir dasta qog'ozlarini ko'tarib kelavergani barchaning tinchini buzadi. U "Mo'minning uyi buzilishga tushgan",- deb, uyni kimlargadir mo'maygina pulga sotmoqchi bo'ladi. Bankir ham kattalardan kelgan buyruqni bajaruvchi bo'lsa-da, aslida o'zi ham bu ishga sherik. Spektakl davomida tomoshabin u kabi laganbardor kimsalardan nafratlanadi. Ular har safar "Uyingiz buzilishga tushgan" degan gap bilan Mo'minning dardini yangilaydi. Qishloq ayollari tekshiruvchi kelganida savollar berishga urinadi, biroq ular ayollarning biron kamchiliklar haqida gapirib qo'yishdan qo'rqishadi. Chunki hokim tomonidan topshirilgan ishlar o'z vaqtida bajarilmas edi. Ayrim qilingan ishlar ham ko'z bo'yamachilik maqsadida amalga oshirilgan.

Tekshiruvchi (F. Qurbonov) aytilgan vazifalar o'z vaqtida bajarilmaganini ko'rib ularga tanbeh bera boshladi. Yordamchilar esa turli bahonalarni sabab qilib, aybini yuvish maqsadida, "Daraxtlarni oqlab qo'ygan edik yomg'ir yuvib ketdi"- deya bahonalar qilishdi.

Hokim (Ravshan Dadajonov) esa bundan bexabar. Uyning buzilish haqida hech qayerda biron buyruq chiqarilmagan. Bankir doim kattalar aytdi, deb, yolg'on buyrug'ini bajarib, o'zining ulushini olib o'rgangan. Ishdan mo'may foyda olavermagach, Mo'minga jahl ham qiladilar. Hokim "Hech qanday qaror chiqarganim yo'q hamma o'z uyida qoladi. Sizni tabriklaymiz, tog'-u toshlarni bog'larga aylantirdingiz. Davlatimiz sizni mukofotladi",-deya Mo'minga mukofotni topshiradi. Mahalladan kam ta'minlangan oilaga uy olib berishni ham aytgan edi. "Uying masalasi hal bo'ldimi",-deb ishchidan so'raydi. Ishchi esa u haqida hech qanday qaror chiqmaganini aytadi. Hokim shu paytgacha bu muammo hal bo'lmaganidan vakilni koyiydi. Vakil o'zini oqlab, "Bizga qo'ng'iroq qiling, uyni beramiz", - deydi.

Mo'min hokim tomonidan hech qanday buyruq yo'qligini eshitgach, uyiga qaytadi. U yerini laganbardor kimsalar boshqa kishiga sotmoqchi bo'lib, undan mo'maygina pul olganini eshitadi. Olingan pullar ularning o'z ehtiyojlari uchun ishlatib yuborilgan edi. Uy loyihaga tushmagani sababli pulni egasiga qaytarish kerak, biroq u esa shuncha mablag'ni qayerdan olishini o'ylab xunob bo'ladi. Mo'min uyiga qaytarilgach, hurmat bilan kutib olishadi, chunki uning chizgan loyihasi Toshkentda tasdiqdan o'tgan edi.

Sahna bezagi va musiqa spektakl muhitini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Bu elementlar o'zaro uyg'unlashib, spektaklning badiiy yaxlitligini ta'minlaydi. Sahna

bezagi ham asarning mazmuniga mos tarzda yaratilgan. Spektakl rassomi Jaloliddin Rahimov sahna bezagini asarning mazmunidan kelib chiqqan holda yaratadi. Sahna keng va ochiq maydonda qurilgan bo'lib, o'rtada kichik supacha, uning atrofida daraxtlar tasvirlangan. Hovlining o'rtasidagi katta kekxa daraxt qahramonimizning ancha yildan buyon shu bog'ni gullab -yashnashi uchun qilgan mehnatlarini ko'rsatgan. Sahna dekoratsiyasi voqealar rivojiga xizmat qilib, tomoshabinga asar muhitini his qilish imkonini beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, sahnada o'zbek xalqining mentaliteti va qishloqda yashovchi insonlarning hayoti aks ettirilgan.

Spektakl dramaturgiyasidan tashqari ariya, duet, xor, raqs singari tarkibiy qismlarni o'zida jam etgan tarzda yaratilgan bo'lishi doim dolzarb bo'lgan. [3, 277-b].

Shu jumladan, bu spektakl musiqasi bastakor Oydin Abdullayeva tomonidan yaratilgan bo'lib, u voqealarining hissiy ta'sirini yanada kuchaytiradi. Musiqa ayrim sahnalarda dramatik vaziyatni yanada kuchaytirib, tomoshabin qalbiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Asarda Mo'min ariyasi, Olga va Mo'min dueti, Oygul ariyasi hamda xor, fon musiqalari keng qo'llanilgan. Musiqa lirik- dramatik ruhda yozilgan bo'lib, o'zbekona ohanglarga asoslangan turli iztiroblarni o'zida aks ettiradi. Spektaklda simfonik orkestr, nay va afg'on ro'bobi cholg'u asboblardan foydalanilgan bo'lib, ular sahnadagi kayfiyat va ruhiy holatlarni yanada boyitadi. Bastakor ijodida "Osmonning bag'ri keng", "Farishtali ayol" kabi musiqali dramalari, "Ko'nglimning ko'chasi" komidiyasi, shuningdek "Qizi borning nozi bor", "Parivashga parvonaman", "Daraxtlar tik turib jon beradi", "Zo'raki tabib", "Zamon avloniyasi" "Tobutdan tovush" kabi spektaklga bastalangan kuylar ham uning ijodining muhim qismidir. Umuman olganda bastakor yaratgan musiqa spektakl mazmunini ochib beruvchi, uning g'oyaviy- badiiy mohiyatini chuqurlashtiruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda teatr san'atining ahamiyati va mas'uliyati nihoyatda yuksakdir, chunki uning asosiy vazifasi yosh avlodni har tomonlama kamol topgan shaxs qilib tarbiyalashdan iborat [4, 3-b].

Spektakl yosh avlodni halollik, sadoqat va insoniylik ruhida tarbiyalashda, shuningdek, ma'naviy tarbiya vositasi sifatida muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, bu sahna asari zamonaviy o'zbek teatr san'atining e'tiborli namunalaridan biri hisoblanadi. Spektakl tomoshabinlarga kuchli hissiy ta'sir ko'rsatadi. Undagi voqealar hayotiyli bilan diqqatni tortdi. Tomoshabinlar qahramonlarning taqdiri bilan birga yashab, ularning quvonchi va iztiroblarini his qiladi. Shu sababli spektakl tomoshabin qalbida chuqur taassurot qoldiradi.

Qo'chqor Norqobilning "Osmon hamma gapni eshitadi" asari asosida sahnalashtirilgan spektakl o'zbek teatr san'atida muhim o'rin tutadigan sahna

asarlaridan biriga aylandi. U badiiy, g'oyaviy jihatdan teatr repertuaridan alohida o'rin egallagan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Qodirov M. O'zbek teatri tarixi. - Toshkent: Ijod dunyosi, 2003. - 239-b.
2. Tursunov T. Sahna va zamon. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.- 415-b
3. Tursunov T. XX asr o'zbek teatri tarixi.-T.: 2010.-565 b
4. Tursunov T. XX asr o'zbek teatri tarixi.-T.: 2010.-565 b